



CHET CHET EL ARBITRAJ QARORLARINI TAN OLISH VA IJROGA QARATISHNI RAD ETUVCHI HOLATLAR: OMMAVIY TARTIB

¹Norbekov Feruzbek Navro'zboy o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 3-kurs talabasi

Email: feruznorbekov701@gmail.com

²Abdumannopov Humoyun Mirzo Shokirjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 3-kurs talabasi

Email: khumoyunabdumannopov@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7882513>

ARTICLE INFO

Received: 23th April 2023

Accepted: 29th April 2023

Online: 30th April 2023

KEY WORDS

Ommaviy tartib, Nyu-York konvensiyasi, chet el arbitraj qarorlari, milliy sudlar.

ABSTRACT

Ommaviy tartib bu chet el arbitraj qarorlarini milliy sudlar tomonidan tan olish va ijroga qaratishning eng muhokamali nuqtasi. Ushbu termin Nyu-York konvensiyasida chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni eng ko'p rad qiladigan holatidir hamda ushbu sabab sudlar tomonidan chet el arbitraj qarorlarini tan olishga qarshi himoya vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Ommaviy tartib New-York konvensiyasini istisno etuvchi holatlarning yagona sababi emas, balki konvesniya bilan qamrab olingan boshqa istisno etuvchi holatlar milliy sudlar oldida ommaviy tartibning buzilishi sifatida talqin etilishi mumkin.

Shuning uchun ushbu tadqiqotning maqsadi ommaviy tartib va rad etuvchi holatlar o'rtasidagi bo'g'liqlikni aniqlashdir. Boshqa tomondan olib qaraganda har bir davlatda o'zining ommaviy tartib tushunchasi va unga tushadigan holatlar mavjud va bu holat bir davlatdan boshqa davlatda farq qilishi mumkin. Garchi bir davlat hududida tan olingan va ijroga qaratilgan chet el arbitraj qarori boshqa davlat hududida uning ommaviy tartibiga to'g'ri kelmagan holda tan olinishi va ijroga qaratilmasligi mumkin. Ushbu tadqiqotda ommaviy tartib izohi turlicha jihatlar bilan muhokama qilinadi.

KIRISH

Arbitraj bu nizolarni muqobil hal qilishning mashhur yo'llaridan biridir. Arbitr bu xuddi sudga o'xshagan yakuniy qaror qabul qiluvchi mustaqil shaxs davlat sudlariga o'xshamagan tarzda va taraflar o'rtasidagi nizoga yechim beradi. Hattoki isbotlashning qoidalari ham moslashuvchan hech qanday qat'iy norma yo'q.

Nizolarni arbitrajda ko'rishning qulayliklari davlat sudlariga qaraganda ancha ko'pdir. Masalan arbitrlar va ularning soni taraflar tomonidan tanlanishi, nizolarni hal qilish ancha tez



bo'lishi hamda nizolarni arbitrajda ko'rish maxfiy tarzda ommaga ochiqqlanmasdan (davlat sudlaridan farqli ravishda) ko'rilishi va hokazo. Arbitraj nafaqat tijoriy masalalarni balki sport, intellektual mulk huquqi va investitsiya nizolarini va boshqa shunga o'xshash nizolarni ko'radi. Nizolarni ko'rish jarayonida arbitraj tomonlar uchun muhim chunonchi, tijorat sirlari, nou- xaular va shunga o'xshash ochiqqlanishi tomonlarning faoliyatiga zarar keltiradigan malumotlarni maxfiy tarzda saqlaydi. Bugungi kunda International Chamber of Commerce (ICC), The Arbitration Institute of the Stockholm Chamber of Commerce (SCC), London Court of International Arbitration (LCIA) and Hong Kong International Arbitration Center (HKIAC) kabi mashhur arbitrajlar mavjud.

NEW YORK KONVENSIYASI AHAMIYATI

Chet el arbitraj qarorlarini tan olish va uni ijrosini ta'minlash xalqaro tijorat arbitraj huquqida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni tartibga soluvchi bir necha mintaqaviy va xalqaro darajadagi konvensiyalar mavjud. Xususan ular mintaqaviy darajadagi Panama konvensiyasi, Buenos-Aires konvensiyasi, Ar-riyod konvensiyasi va xalqaro darajadagi New York konvensiyasi. Shu o'rinda Jeneva konvensiyasiga to'xtalamiz. Konvensiya 1929 yilda kuchga kirgan va xorijiy arbitraj qarorlarini ijro etish mezonlari bo'yicha yagona tartibni belgilaydi.

Biroq, bu mezonlar ancha noaniq va cheklovchidir. Turli bosqichlarning haqiqiylikini baholash arbitraj ichki huquq tizimlari to'plamidagi havolalarni o'z ichiga oladi va sudlar mezbon davlat arbitraj qarori yakuniy bo'lgan taqdirdagina ijroga qabul qilishi mumkin. Bu holat "ikki tomonlama ekzekvatura"¹ (*Mohiyatan, ikki tomonlama ekzekvatura qarorni ijro etishni talab qilayotgan tomon u chiqarilgan mamlakatda va ijro etish so'ralgan mamlakatda "yakuniy" bo'lganligini isbotlashi kerakligini anglatardi*) ni talab qiladi. Konvensiya o'sha davrning gegemonlari bo'lgan AQSH va Sovet ittifoqi tomonidan ratifikatsiya qilinmagan. Ikkinchi jahon urushidan keyin (1938-1942) xalqaro savdo kuchaydi. Xalqaro savdo mutlaqo yangi va o'zgacha konvensiyaga ehtiyoj seza boshladi.

Shuning uchun, 1958-yilda jahonning ikki super kuchlari ishtirokida New York konvensiyasi tuzildi. Jeneva konvensiyasidan farqli o'laroq, Nyu-York konvensiyasi mamlakatlar tomonidan bosqichma-bosqich ratifikatsiya qilina boshladi. Ushbu konvensiya boshqalariga o'xshamagan tarzda chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish istisno holatlari joriy etdi etdi misol uchun ular quyidagilar:

- qaror berilgan joyning qonunchiligiga muvofiq arbitraj kelishuvining haqiqiy emasligi yoki tomonlarning hakamlik muhokamasiga qodir emasligi;
- taraflar tomonidan hakamlik sudyalarni tayinlash to'g'risida noto'g'ri xabar berish;
- hakamlik muhokamasi shartlari doirasidan tashqarida bo'lgan arbitraj qarorlari;
- Hakamlik sudining noto'g'ri tarkibi;
- Tomonlar bo'yicha yakuniy bo'lmagan yoki majburiy bo'lmagan arbitraj qarorlari yoki arbitraj qarorlari mavjud vakolatli organ tomonidan to'xtatilgan yoki bekor qilingan bo'lsa;
- tan olinishi va ijro etilishi mumkin bo'lgan mamlakat uchun hal qilib bo'lmaydigan nizolar;
- arbitraj qarorining tan olinishi yoki ijro etilishi ijro etiladigan mamlakatning **ommaviy tartibiga** zid bo'lsa.²

Bugungi kunda konvensiyaning 172 ta a'zosi bor.



OMMAVIY TARTIB

New York konvensiyasining 5-moddasida “The recognition or enforcement of the award would be contrary to the public policy of that country.”³ chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijro qilish ommaviy tartibga zid bo’lsa rad etilishi ta’kidlangan. Ommaviy tartib nafaqat chet el sudlari qarorlarini balki chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni istisno etuvchi holatga aylangandan beri xalqaro tijorat arbitraj huuqida muhim muhokamali masala bo’lib kelmoqda. Ushbu masala New York konvensiyasida chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni istisno etuvchi holat sifatida talqin qilinadi. “Konvensiya V(2)(b)-moddasi sud tomonidan qaror ushbu davlatning ommaviy tartibiga zid keladi deb hisoblasa, u holda arbitraj qarorini tan olish yoki ijro etishni rad etish mumkin. Ommaviy tartib sababli konvensiyada rad etish asosi sifatida ko’rsatilmagan va shu sababli ijroni rad etish sohasida yana bir qonundagi bo’shliq paydo bo’lishi mumkin. Umuman olganda aksariyat sudlar ushbu masalani konvensiyaning majburiy ijro etish maqsadidan chetga chiqmagan holda ko’rib chiqishi kerak.”⁴

Yuqorida ta’kidlanganidek New York konvensiyasida agar chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish agar davlatning ommaviy tartibiga zid keladigan bo’lsa uning ijrosi va tan olinishi rad etilishi mumkin. Konvensiyada ommaviy tartibning qanday shakllarda bo’lishi, qanday holatlar ommaviy tartibga zid kelishi haqida batafsil malumot keltirilmagan. Sababi har bir davlatda o’zining milliy siyosati va ommaviy tartibi turlicha ekanligini keltirishimiz mumkin.

Tabiiy ravishda bu holat davlatlar tomonidan ommaviy tartibning har qanday buzilishini (ahamiyatsiz yoki ahamiyatliligidan qat’i nazar) chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni rad qilish asosi sifatida ko’rsatish holatlari ko’payishiga yo’l ochib beradi. Masalan, Xitoy Oliy sudi, Xitoy Madaniyat vazirligi rok jamoasiga konserti uchun berilishi kerak bo’lgan pullarni vazirlikdan olib berish to’g’risidagi CIETAC qarorini ijro etishni rad etdi. Chunki sud rok jamoasining musiqasini “milliy madaniyatga zid” va shu bilan birga ijtimoiy va jamoat manfaatlariga zid⁵ deb topdi. Ushbu holatda Xitoy Oliy sudining bu harakatlarini chet el arbitraj qarorini tan olish va ijroga qaratishni unchalik muhim bo’lmagan sababni (rok musiqaning kirib kelishi mamlakat madaniyatiga ta’sir etishi) ommaviy tartibni buzilishi deya talqin qilishi va rad etishi ikkinchi tomonning manfaatiga zarar keltiradi yoki aksincha bu qaror Xitoy ma’murlari tomonidan ijro etilishni xohlamayotgan deb tushunimiz mumkin.

Shuningdek O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 1164-moddasida “Chet el huquqini qo’llanish O’zbekiston Respublikasining huquq-tartiboti asoslariga (ommaviy tartibga) zid keladigan hollarda chet el huquqi qo’llanilmaydi. Bunday hollarda O’zbekiston Respublikasining huquqi qo’llaniladi.”⁶ Bizda ham agar chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bo’yicha qarorning ijro etilishi ommaviy tartibga to’g’ri kelmasa O’zbekiston Respublikasi qonuni qo’llaniladi.

XULOSA

Nyu-York konvensiyasi ijro ishida rad etishning bir qancha sabablarini belgilaydi. Garchi bu sabablar bir-biridan farqli bo’lsa-da, ularning barchasi aslida turli milliy sudlar tomonidan davlat siyosatining buzilishi sifatida talqin etiladi. Chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni rad qilish sabablaridan biri bo’lgan ommaviy tartibning buzilishi hamma davlatda har xil talqin qilinishi mumkin.



Lekin shu talqin qilishning New York konvensiyasi tomonidan aniq holatlar bilan belgilanib qo'yilmaganligi bir qancha davlatlar tomonidan arzimagan sabablar bilan ommaviy tartibning buzilishi deya qarorlarni tan olish va ijro qilish holatlarini bekor qilishi boshqa tarafning manfaatlariga putur yetkazmoqda.

Xususan AQSH va Misr o'rtasida Parsons &Whittemore Overseas Co. v. Societe Generale de L'Industrie du Papier (RAKTA) kazusining xulosa qismida shunday deyilgan. "Konventsianing davlat siyosatini himoya qilish tor doirada talqin qilinishi kerak."⁷

Xulosa qilib aytganda chet el arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni rad etuvchi holatlardan biri bo'lgan ommaviy tartibning buzilishi milliy sudlar tomonidan qarorni tan olish va ijro qilish qachonki ommaviy tartibning jiddiy buzilishiga yoki huquq-tartibot sohasiga jiddiy putur yetkazgan taqdirda rad qilinishi kerak.

References:

1. ¹ <https://www.nortonrosefulbright.com/en/>
2. ² New york konvensiyasi
3. ³ New York convention article V (2)
4. ⁴ Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Margaret L.Mozes.2020-yil 298-bet
5. ⁵ Casetext.com
6. ⁶ <https://lex.uz/docs/-180552>
7. ⁷ <https://casetext.com/case/parsons-wh-ov-v-societe-g-de-l-du-p>
8. Morgaret L. Mozes Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti Uchinchi nashr. / T. : Lesson press, - 502 bet.
9. Garry Born. International Commercial Arbitration Law. Third edition. 4250 pages
10. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021-y., 03/21/674/0123- son
11. <https://www.nortonrosefulbright.com/en/>
12. <https://www.newyorkconvention.org>
13. <https://lex.uz/docs/-5294106>
14. <https://casetext.com/case/parsons-wh-ov-v-societe-g-de-l-du-p>
15. <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=f96e8738-5cfe-4e39-8d1d-7a6dbfbd4c21>